

FORS TILIDA INSON ICHKI A’ZOLARI ISHTIROKIDAGI MAQOLLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI

Sobirova Shahrizoda

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada fors tilidagi inson ichki a’zolari ishtirokidagi maqollar struktur-semantik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda paremiologik birliklarning xalq tafakkuridagi o’rni, ularning lingvokulturologik mazmuni va ramziy ma’nolari o’rganildi. دل (yurak), جگر (jigar), خون (qon) va جان (jon) komponentlari asosida jami 40 dan ortiq maqol tahlil qilinib, ularning strukturaviy (oddiy, parallel, qarama-qarshi va metaforik) hamda semantik (samimiyat, jasorat, iztirob, adolat, hayotiy qadriyat) guruhlariga mansubligi ko’rsatildi.

Kalit so’zlar: paremiologiya, somatik komponent, fors maqollari, struktur-semantik tahlil, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, xalq og’zaki ijodi.

Maqollar xalq tafakkurining eng qadimiy qatlamlarini o’zida mujassamlashtiruvchi paremiologik birliklardir. Ular xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy hayotiy tajribasini ixcham shaklda ifodalovchi, madaniyat tarixi va milliy tafakkur ko’zgusidir. Paremiologiya tilshunoslikda alohida sohaga aylangan bo’lib, nafaqat lingvistik, balki etnolingvistik, semiotik va kognitiv yondashuvlar asosida ham keng o’rganiladi.

Maqollar milliy tafakkurning genetik xotirasi bo’lib, ular orqali xalq o’zining ijtimoiy-tarixiy tajribasini, madaniy kodini va axloqiy qarashlarini asrab-avaylab, avloddan-avlodga yetkazadi. Shu sababli maqollarni tadqiq etish nafaqat folklorshunoslik, balki tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Maqollar xalqning ruhiy olami va milliy dunyoqarashining bevosita ko’zgusi sifatida qadimdan tadqiqotchilar e’tiborini tortib kelgan. Har bir maqol qisqa va lo’nda shaklda jamiyatning tarixiy tajribasi, ijtimoiy qadriyatlari va axloqiy me’yorlarini ifodalaydi.

Somatik komponentli maqollar, xususan, ichki a’zolar ishtirokidagi maqollar inson tanasiga berilgan ramziy yuklamani va uning ruhiy hayot bilan bevosita bog’liqligini ko’rsatadi. Shu jihatdan ular lingvokulturologik va kognitiv tadqiqotlar uchun bebaho material hisoblanadi. Kognitiv lingvistika doirasida somatik birliklar inson tanasi va tafakkurining uzviy bog’liqligini ko’rsatadi, semiotika esa ularning ramziy-majoziy tabiatini tahlil etadi.

Fors maqollaridagi ichki a’zolar ramzi nafaqat milliy madaniyatni, balki umuminsoniy qadriyatlarni ham yoritadi. Masalan, دل (yurak) ko’plab tillarda samimiyat va muhabbat timsoli bo’lib keladi, biroq fors tilidagi «دل خون است و دیده گریان»

kabi iboralar o‘ziga xos milliy ruhiyatni ham namoyon etadi¹Fors tilidagi ichki a’zolar ishtirokidagi maqollar turkiy tillardagi maqollar bilan qiyos qilinganda ko‘plab tipologik o‘xshashliklar namoyon bo‘ladi, bu esa xalqlar tafakkuridagi umumiylik va milliy xususiyatlarning uyg‘unlashuvini ko‘rsatadi.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda fors tilidagi ichki a’zolar ishtirokidagi maqollar tizimli ravishda struktur-semantik jihatdan tahlil qilinadi va ular asosida xalqning lingvokulturologik qarashlari aniqlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, bunday maqollarni o‘rganish nafaqat paremiologiya, balki tarjimashunoslik, til o‘qitish metodikasi va madaniyatlararo muloqot sohalarida ham foyda beradi. Maqolalarni o‘rganishda struktur-semantik tahlil, lingvokulturologik yondashuv va qiyosiy metod asosiy vosita sifatida qo‘llanildi, bu esa tadqiqot natijalarini yanada mukammallashtiradi.

1. دل (yurak) ishtirokidagi maqollar

1.1 دل روشن است

Lotin: del roshan ast

Tarjima: Yurak yorug‘.

Strukturaviy tahlil: Yorug‘lik obrazi orqali qalbning sof holati ifodalangan.

Semantik tahlil: Samimiyat, halollik va poklik ramzi.

Madaniy sharh: Fors madaniyatida yorug‘ yurak Allohga yaqinlik va ezgulik timsoli.

Qiyosiy nuqta: O‘zbek tilida “ko‘ngli yorug‘” iborasi mavjud.

Ma’noviy guruh: Samimiyat va poklik.

1.2 دل تنگ است

Lotin: del tang ast

Tarjima: Yurak tor.

Strukturaviy tahlil: “Tor” obrazi orqali ruhiy iztirob tasvirlangan.

Semantik tahlil: Qayg‘u, siqilish va iztirob.

Madaniy sharh: Fors she’riyatida “dil tanglik” ayriliq va iztirobning odatiy ramzi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbek tilida “ko‘ngli tor” deyiladi.

Ma’noviy guruh: Iztirob va qayg‘u.

¹ انوری، حسن. فرهنگ امثال و تعبیرات فارسی. تهران: انتشارات سروش، ۱۳۸۱

1.3 دل کوچک غم بزرگ نمی‌گیرد

Lotin: del-e kučak qam-e bozorg nemigirad

Tarjima: Kichik yurak katta g'amni sig'dira olmaydi.

Strukturaviy tahlil: Qalb hajmi va g'amning kattaligi qiyoslangan.

Semantik tahlil: Bardoshsizlik, sabrning chegarasi.

Madaniy sharh: Fors xalq tafakkurida “keng yurak” sabr va donishmandlik timsoli.

Qiyosiy nuqta: O'zbeklarda “Tor ko'ngil katta g'amni ko'tarmas” deyiladi.

Ma'noviy guruh: Bardoshlilik va iroda.

1.4 دل مردم خانه خداست

Lotin: del-e mardom xāne-ye Xodāst

Tarjima: Inson yuragi – Xudoning uyi.

Strukturaviy tahlil: Yurakni muqaddas joy sifatida ta'riflagan.

Semantik tahlil: Qalb ilohiylik va poklik maskani sifatida qaraladi.

Madaniy sharh: Fors tasavvufiy adabiyotida qalb Allohning tajallisi tushadigan maskan.

Qiyosiy nuqta: O'zbeklarda ham “Qalb – Allohning maskani” qarashi mavjud.

Ma'noviy guruh: Ilohiylik va muqaddaslik.

1.5 دل سالم در بدن سالم است

Lotin: del-e sālem dar badan-e sālem ast

Tarjima: Sog'lom tanada sog'lom yurak.

Strukturaviy tahlil: Tana va yurak o'rtasidagi uyg'unlik ko'rsatilgan.

Semantik tahlil: Jismoniy va ruhiy sog'lomlik birdamligi.

Madaniy sharh: Fors xalq og'zaki ijodida tan va ruh uyg'unligi inson kamoloti sharti.

Qiyosiy nuqta: O'zbeklarda “Sog'lom tanada sog'lom ruh” iborasi mavjud.

Ma'noviy guruh: Sog'lomlik va hayotiy kuch.

1.6 دل به دل راه دارد

Lotin: del be del rāh dārad

Tarjima: Dil dildan yo'l topadi.

Strukturaviy tahlil: Qalblararo bevosita aloqa ifodalangan.

Semantik tahlil: Samimiylilik, tushunish va yaqinlik.

Madaniy sharh: Fors madaniyatida qalblararo sezgi va mehr birlashuvi qadrlanadi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “Ko‘ngildan ko‘ngilga yo‘l bor” deyiladi.

Ma‘naviy guruh: Samimiyat va mehr-muhabbat.

1.7 هر چه از دل برآید، بر دل نشیند

Lotin: har ĉe az del bar-āyad, bar del nešinad

Tarjima: Yurakdan chiqqan narsa yurakka o‘tiradi.

Strukturaviy tahlil: Parallel qurilmali, ta’sirchanlik kuchini ko‘rsatadi.

Semantik tahlil: Chin so‘zning yurakka tez yetishi.

Madaniy sharh: Fors adabiyotida samimiylik so‘zning asosiy qudrati sifatida ko‘rsatiladi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “Ko‘ngildan chiqqan so‘z ko‘ngilga yetadi” deyiladi.

Ma‘naviy guruh: Samimiyat va rostgo‘ylik.

1.8 دل خوش است ولی جیب خالی است

Lotin: del xosh ast vali jib xoli ast

Tarjima: Yurak xursand, ammo cho‘ntak bo‘sh.

Strukturaviy tahlil: Qarama-qarshi qurilmali.

Semantik tahlil: Ruhiy boylik va moddiy kambag‘allik qarama-qarshiligi.

Madaniy sharh: Fors xalq tafakkurida moddiy va ma‘naviy qadriyatlarining muvozanati tez-tez ta’kidlanadi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “Ko‘ngli boy odam” deyiladi.

Ma‘naviy guruh: Ma‘naviyat va moddiyat qarama-qarshiligi.

1.9 نه دل خوش است، نه دنیا

Lotin: na del xosh ast, na donyā

Tarjima: Na yurak xursand, na dunyo.

Strukturaviy tahlil: Parallel qurilmali.

Semantik tahlil: Umumiy iztirob va norozilikni bildiradi.

Madaniy sharh: Fors xalq maqollarida dunyo va qalb ko‘pincha yonma-yon keladi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “Na ko‘ngil shod, na dunyo obod” iborasi mavjud.

Ma‘naviy guruh: Iztirob va tushkunlik.

1.10 دل آینه است، زنگ نگیرد

Lotin: del āyine ast, zang nagirad

Tarjima: Yurak oynadir, zanglamaydi.

Strukturaviy tahlil: Yurak va oyna metaforasi ishlatilgan.

Semantik tahlil: Sof qalbning buzilmasligi va tozaligi.

Madaniy sharh: Fors tasavvufiy adabiyotida qalb “oyna”ga qiyoslanib, unda Haqiqat aks etishi ta’kidlanadi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “Ko‘ngil oynasi” iborasi uchraydi.

Ma’noviy guruh: Soflik va ruhiy poklik²

2. جگر (jigar) ishtirokidagi maqollar

2.1 جگر طاقت ندارد

Lotin: jigar-am tāqat nadārad

Tarjima: Jigarim toqat qilmaydi.

Strukturaviy tahlil: Ichki a’zoning bardoshlilik qobiliyati bevosita ifodalangan.

Semantik tahlil: Ruhiy yoki jismoniy og‘irlikka chidamaslik.

Madaniy sharh: Fors madaniyatida “jigar” chidam, sabr va ichki kuch markazi sifatida qaraladi. Bu yerda esa sabrning tugaganini bildiradi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbek tilida “sabri chidamim qolmadi” mazmunida ishlatiladi.

Ma’noviy guruh: Bardoshsizlik va iztirob.

2.2 جگر خون شد

Lotin: jigar xun šod

Tarjima: Jigar qon bo‘ldi.

Strukturaviy tahlil: Metaforik ifoda.

Semantik tahlil: Og‘ir iztirob, qayg‘u va ruhiy jarohat ramzi.

Madaniy sharh: Fors poeziyasida “jigar qon bo‘lishi” chuqur alam va iztirob timsoli.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “ichim qon bo‘ldi” deyiladi.

Ma’noviy guruh: Og‘riq va iztirob.

2.3 جگر سنگی

² دهخدا، علی اکبر. امثال و حکم. تهران: دانشگاه تهران، ۱۳۳۷.

Lotin: jigar sangi

Tarjima: Tosh jigar.

Strukturaviy tahlil: Qiyos asosida, tosh obrazidan foydalanilgan.

Semantik tahlil: Bevafo, qattiqqo‘l yoki rahmsiz odamni ifodalaydi.

Madaniy sharh: Fors tilida “jigar” mehr va shafqat markazi bo‘lsa, toshga qiyos qilish uning yo‘qligini bildiradi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbek tilida “ko‘ngli tosh” iborasi mavjud.

Ma‘noviy guruh: Bevafo va qattiqqo‘llik.

2.4 جگر آتش گرفته

Lotin: jigar-am ātaš gerefte

Tarjima: Jigarim yonib ketdi.

Strukturaviy tahlil: “Yonish” metaforasi ishlatilgan.

Semantik tahlil: Chuqur iztirob, alam va qayg‘u ramzi.

Madaniy sharh: Fors adabiyotida “yonish” sevgi yoki qayg‘u og‘riqlarini ifodalashda keng qo‘llanadi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbek tilida “ichim yonib ketdi” deyiladi.

Ma‘noviy guruh: Izitirob va alam.

2.5 جگر مثل کوه است

Lotin: jigar mesl-e kuh ast

Tarjima: Jigar tog‘dek.

Strukturaviy tahlil: Jigar va tog‘ qiyoslangan.

Semantik tahlil: Chidamlilik, kuch va barqarorlik ramzi.

Madaniy sharh: Tog‘ fors xalq tasavvurida mustahkamlik timsoli bo‘lgani uchun, “jigar tog‘dek” deyish chidamli insonni ko‘rsatadi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “tog‘dek yurak” deyiladi.

Ma‘noviy guruh: Jasorat va chidamlilik.

2.6 دل مرد، میدان است

Lotin: del-e mard meydān ast

Tarjima: Erkakning yuragi – maydondir.

Strukturaviy tahlil: Yurak jang maydoniga qiyoslangan.

Semantik tahlil: Erkakning yuragi jasorat va kurash ramzi sifatida talqin etiladi.

Madaniy sharh: Fors xalq og‘zaki ijodida erkakning qalbi jasorat va mardlik markazi hisoblangan.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “mard yuragi keng bo‘ladi” iborasi mavjud.

Ma’noviy guruh: Jasorat va mardlik.

2.7 دل دادن، جان گرفتن است

Lotin: del dādan, jān gereftan ast

Tarjima: Yurak berish – jon olishdir.

Strukturaviy tahlil: Qarama-qarshi mazmundagi ikki amal birlashtirilgan.

Semantik tahlil: Sevgi va fidoyilikning yuqori cho‘qqisini ifodalaydi.

Madaniy sharh: Fors she’riyatida sevgi yo‘lida jon fido qilish tasavvufi ruhdagi asosiy mavzulardan biri.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “ko‘ngil berish – jon berish” ma’nodosh.

Ma’noviy guruh: Sevgi va fidoyilik

2.8 جگر شیر می خواهد

Lotin: jigar-e šir mixāhad

Tarjima: Sherning jigari kerak.

Strukturaviy tahlil: Sher obrazidan qiyos sifatida foydalanilgan.

Semantik tahlil: Jasorat va qo‘rqmaslik ramzi.

Madaniy sharh: Fors madaniyatida sher jasorat va qudrat timsoli. Uning jigari esa mardlikni bildiradi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “sher yurak” iborasi ishlatiladi.

Ma’noviy guruh: Jasorat va mardlik.

2.9 جگر می سوزد، زبان خاموش است

Lotin: jigar misuzad, zabān xāmuš ast

Tarjima: Jigar yonadi, til jimdir.

Strukturaviy tahlil: Qarama-qarshi qurilmali.

Semantik tahlil: Og‘riq va iztirob bo‘lsa-da, inson uni ochiq ifoda etmaydi.

Madaniy sharh: Fors xalq tafakkurida sabr va sukut ko‘pincha mardlik belgisi sifatida ko‘rsatiladi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “yuragi yonib, tili jim” deyiladi.

Ma’noviy guruh: Iztirob va sukut.

2.10 جگر خون است و دیده گریان

Lotin: jigar xun ast va dide geryān

Tarjima: Jigar qon, ko‘z esa yig‘laydi.

Strukturaviy tahlil: Parallel qurilmali.

Semantik tahlil: Ichki iztirob va tashqi ko‘z yoshi birligi.

Madaniy sharh: Fors poeziyasida qalb og‘rig‘i ko‘pincha ko‘z yoshi bilan birga tasvirlanadi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “ichim qon, ko‘zim yosh” deyiladi.

Ma‘noviy guruh: Iztirob va qayg‘u.

جگر آدم آهني نيست 2.11

Lotin: jigar-e ādam āhani nist

Tarjima: Inson jigari temirdan emas.

Strukturaviy tahlil: Jigar va temir qiyoslangan.

Semantik tahlil: Insonning sabri va chidamliligi chegaralangan.

Madaniy sharh: Fors xalq qarashida inson ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan mo‘rt mavjudot.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “odam temirdan emas” iborasi mavjud.

Ma‘noviy guruh: Insoniylik va zaiflik.

جگر پاره پاره است 2.12

Lotin: jigar-am pāre pāre ast

Tarjima: Jigarim parcha-parcha.

Strukturaviy tahlil: Metaforik ifoda.

Semantik tahlil: Og‘ir iztirob va ruhiy jarohat ramzi.

Madaniy sharh: Fors poeziyasida “parcha-parcha jigar” chuqur iztirobni ifodalaydi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “yuragim tilka-por” deyiladi.

Ma‘noviy guruh: Og‘riq va ruhiy iztirob.

جگر داشتن 2.13

Lotin: jigar dāštan

Tarjima: Jigar bor.

Strukturaviy tahlil: Qisqa ibora.

Semantik tahlil: Jur‘at, mardlik va qo‘rqmaslik ramzi.

Madaniy sharh: Fors tilida “jigarli odam” jasoratli, mard inson ma‘nosida ishlatiladi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “jigarli yigit” iborasi mavjud.
Ma’naviy guruh: Jasorat va mardlik³

3. خون (qon) ishtirokidagi maqollar

3.1 خون تازه در رگها

Lotin: xun-e tāze dar rag-hā

Tarjima: Tomirlarda yangi qon.

Strukturaviy tahlil: Qon va tomir obrazlari uyg‘unlikda ishlatilgan.

Semantik tahlil: Yosh avlod, kuch, hayotiylik va yangilanish ramzi.

Madaniy sharh: Fors xalq qarashida “yangi qon” yangicha g‘oya, kuch va yoshlarning sahnaga chiqishini bildiradi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “yangi avlod” yoki “yangi kuch” deyiladi.

Ma’naviy guruh: Yoshlar va hayotiy kuch.

3.2 خون در چشم

Lotin: xun dar čēšm

Tarjima: Ko‘zda qon.

Strukturaviy tahlil: Qon va ko‘z obrazlari birlashtirilgan.

Semantik tahlil: Qahr, g‘azab va nafrat ramzi.

Madaniy sharh: Fors adabiyotida “ko‘zda qon” odatda g‘azabning eng yuqori darajasini bildiradi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “ko‘ziga qon chiqdi” deyiladi.

Ma’naviy guruh: G‘azab va qahr.

3.3 خون را با خون نمی‌شویند

Lotin: xun-rā bā xun nemi-šuyand

Tarjima: Qonni qon bilan yuvib bo‘lmaydi.

Strukturaviy tahlil: Qarama-qarshi obrazlardan foydalanilgan.

Semantik tahlil: Zo‘ravonlikka zo‘ravonlik bilan javob bo‘lishi mumkin emas.

Madaniy sharh: Fors maqolshunosligida bu adolat, tinchlik va sabr g‘oyasini targ‘ib qiladi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “zo‘ravonlikni zo‘ravonlik bilan yengib bo‘lmaydi” ma’nodosh ifoda mavjud.

³ قاسمی، محمد. ضرب المثل های فارسی. تهران: نشر مرکز، ۱۳۷۸

Ma’noviy guruh: Adolat va sabr.

3.4 خون بی گناه پایمال نشود

Lotin: xun-e bi-gonāh pāymāl našavad

Tarjima: Begunohning qoni poymol bo‘lmaydi.

Strukturaviy tahlil: Qon va begunohlik obrazlari uyg‘unlashtirilgan.

Semantik tahlil: Adolatning ustuvorligi va haqiqatning qaror topishi.

Madaniy sharh: Fors xalq tafakkurida begunoh odamning haqqi hech qachon yo‘qolmaydi, uning qoni muqaddasdir.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “begunohning haqqi yerda qolmaydi” deyiladi.

Ma’noviy guruh: Adolat va haqiqat.

3.5 خون همان جان است

Lotin: xun hamān jān ast

Tarjima: Qon – bu jonning o‘zi.

Strukturaviy tahlil: Qon va jon bevosita tenglashtirilgan.

Semantik tahlil: Qon hayotning eng muhim unsuri sifatida ko‘rsatiladi.

Madaniy sharh: Fors tibbiy va diniy qarashlarida qon hayotiy kuch, jonning timsoli sifatida qaraladi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “qonsiz jon yo‘q” deyiladi.

Ma’noviy guruh: Hayotiylik va kuch⁴

3.6 دل خون است و دیده گریان

Lotin: del xun ast va dide geryān

Tarjima: Dil qon, ko‘z esa yig‘laydi.

Strukturaviy tahlil: Parallel qurilmali.

Semantik tahlil: Ichki og‘riq (dil qon) va tashqi ko‘z yoshi birlashtirilgan.

Madaniy sharh: Fors adabiyotida ruhiy iztirob ko‘pincha ko‘z yoshlari bilan tasvirlanadi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “ichim qon, ko‘zim yosh” deyiladi.

Ma’noviy guruh: Iztirob va qayg‘u.

3.7 دل کوه کند، اگر بخواد

⁴ انوری، حسن. فرهنگ امثال و تعبیرات فارسی. تهران: انتشارات سروش، ۱۳۸۱

Lotin: del kuh konad, agar bexāhad

Tarjima: Yurak xohlasa, tog‘ni ham ko‘chiradi.

Strukturaviy tahlil: Yurak va tog‘ qiyoslanib, irodaning kuchi ta’kidlangan.

Semantik tahlil: Qalb irodasi bilan barcha qiyinchiliklarni yengish mumkin.

Madaniy sharh: Fors tafakkurida qalbning qat’iyati insonning eng buyuk kuchi sifatida qaraladi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “Ko‘ngil istasa, tog‘ni ham ko‘chiradi” deyiladi.

Ma’noviy guruh: Iroda va qat’iyat.

4. جان (jon) ishtirokidagi maqollar

4.1 جان شیرین است

Lotin: jān širīn ast

Tarjima: Jon shirin.

Strukturaviy tahlil: Jon va shirinlik qiyoslangan.

Semantik tahlil: Hayotning eng qadrli ne’mati sifatida jonning qimmatini bildiradi.

Madaniy sharh: Fors adabiyotida jon – insonning eng ulug‘ boyligi, uni yo‘qotish eng katta yo‘qotish sifatida tasvirlanadi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “Jon shirin” iborasi to‘liq ma’nodoshdir.

Ma’noviy guruh: Hayot va qadriyat.

4.2 جان میرود و عشق می ماند

Lotin: jān miravad o ‘ešq mimānad

Tarjima: Jon ketadi, sevgi qoladi.

Strukturaviy tahlil: Qarama-qarshi obrazlar: jonning ketishi va sevgi qolishi.

Semantik tahlil: Hayot o‘tkinchi, sevgi va ruhiy qadriyatlar esa abadiy.

Madaniy sharh: Fors tasavvufiy adabiyotida sevgi (ishq) jonning ham oldiga qo‘yilgan, u abadiy kuch sifatida talqin qilingan.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “Jon ketar, sevgi qolar” mazmunida ifodalar mavjud.

Ma’noviy guruh: Abadiyat va sevgi.

4.3 جان به لب و دل به خون

Lotin: jān be lab o del be xun

Tarjima: Jon labga kelgan, dil qon bo‘lgan.

Strukturaviy tahlil: Parallel qurilmali, jon va dil obrazlari birgalikda ishlatilgan.

Semantik tahlil: Hayot tugash arafasi, ruhiy va jismoniy iztirobning birlashuvi.

Madaniy sharh: Fors adabiyotida bu ifoda og‘ir azob-uqubat va o‘lim oldidagi iztirob ramzi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “Jon labga kelib, yurak qon bo‘ldi” deyiladi.

Ma‘naviy guruh: Izitirob va hayot-mamot.

جان فداى يار 4.4

Lotin: jān fadā-ye yār

Tarjima: Jon yor yo‘lida fido.

Strukturaviy tahlil: Qisqa va ixcham, fidoyilikni ta’kidlaydi.

Semantik tahlil: Sevikli uchun jonni ham qurbon qilish.

Madaniy sharh: Fors she’riyatida sevgi yo‘lida jonni berish tasavvufiy va dunyoviy adabiyotning eng keng tarqalgan mavzularidan.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “Jonim fido” iborasi mavjud.

Ma‘naviy guruh: Fidoyilik va muhabbat.

جان در خطر است 4.5

Lotin: jān dar xatar ast

Tarjima: Jon xavf ostida.

Strukturaviy tahlil: Bevosita xavf va jon birlashtirilgan.

Semantik tahlil: Hayotiy xavf, insonning eng muhim boyligi tahlikada ekanini bildiradi.

Madaniy sharh: Fors xalq qarashida jon eng muqaddas ne‘mat bo‘lib, uni xavf ostiga qo‘yish eng katta jasorat yoki eng katta yo‘qotish sifatida ko‘riladi.

Qiyosiy nuqta: O‘zbeklarda “Jon xavfda” iborasi mavjud.

Ma‘naviy guruh: Hayotiy xavf va tahlikalar⁵

Semantik tahlil.

Fors tilidagi somatik komponentli maqollar semantik jihatdan xalq tafakkurida chuqur ramziy ma’nolarga ega. دل – his-tuyg‘ular, samimiyat, iztirob va qat’iyat ramzi; جگر – jasorat va chidamlilik; خون – adolat, iztirob va fidoiylik; جان – hayot va muhabbatning eng oliy qadriyati. Bu obrazlar xalqning madaniy olamida universal ramz sifatida ishlaydi.

⁵ معین، محمد. فرهنگ فارسی. تهران: انتشارات امیرکبیر، ۱۳۷۵

Semantik tahlilning yanada chuqurroq ko‘rinishi shuni ko‘rsatadiki, fors tilidagi somatik komponentli maqollar faqatgina ma’no ifodalash vositasi emas, balki ular milliy ong va kognitiv jarayonlarning mahsulidir. Masalan, دل(yurak) obrazida samimiyat va muhabbatning ustuvorligi namoyon bo‘lsa, جگر(jigar) jasorat va chidamlilik bilan bog‘liq milliy qadriyatlarni ifodalaydi. خون(qon) esa ko‘pincha adolat, fidoyilik va kurash ramzi sifatida ishlatiladi. جان(jon) esa hayotning oliy qadriyati bo‘lib, insoniy muhabbat, fidoyilik va ruhiy yuksaklik timsoli sifatida tilga olinadi.

Shuningdek, bu maqollar kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan qaralganda, xalq tafakkurida tananing ichki a’zolari va insoniy his-tuyg‘ulari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi. Masalan, «دل خون است و دیده گریان» kabi ibora yurakni bevosita iztirob manbai sifatida tasvirlaydi, bu esa inson psixologiyasidagi chuqur ramziy ifodaning ko‘rinishidir.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, fors tilidagi ko‘plab maqollar turkiy tillarda ham o‘xshash shaklda mavjud. Masalan, «دل به دل راه دارد» o‘zbek tilidagi «Ko‘ngildan ko‘ngilga yo‘l topilar» maqoliga mos keladi. Bu esa turli xalqlar tafakkurida inson qalbi va his-tuyg‘ularining universalligi mavjudligini isbotlaydi. Umuman olganda, fors maqollaridagi ichki a’zolar ramzi xalq ongida axloqiy qadriyatlarni, ruhiy tajribalarni va madaniy merosni aks ettiruvchi lingvokulturologik fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, semantik tahlil natijalari bu maqollarning nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, etnolingvistika va psixologiya sohalarini uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, fors tilidagi ichki a’zolar ishtirokidagi maqollar xalq tafakkurining ramziy qatlamlarini keng yoritadi. Strukturaviy jihatdan ular oddiy, parallel, qarama-qarshi va metaforik qurilmalar asosida shakllangan bo‘lsa, semantik jihatdan qalb, jasorat, iztirob, adolat va hayotiy qadriyatlarni ifodalashda xizmat qiladi.

Jami 40 dan ortiq maqol tahlil qilinib, ular orasida eng katta ulushni دل(yurak) egalladi. Bu esa xalq dunyoqarashida yurak ramzining ustuvorligini ko‘rsatadi. Jigar obrazlari jasorat va chidamlilikni, qon obrazlari esa adolat va kurashni ifodalagan bo‘lsa, jon obrazi hayot va muhabbatning oliy qadriyatlarini yorituvchi ramz sifatida namoyon bo‘ldi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, eng katta ulush دل (yurak) obraziga to‘g‘ri kelib, fors xalq tafakkurida qalb ramzi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari nafaqat paremiologiya, balki tarjimashunoslik, kognitiv lingvistika va madaniyatlararo muloqot sohalarida ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari nafaqat paremiologiya, balki tarjimashunoslik, kognitiv lingvistika va madaniyatlararo muloqot sohalarida ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqollarni o‘rganish xalqning axloqiy qadriyatlarini, ruhiy tajribalarini va madaniy merosini chuqurroq anglashga imkon beradi. Kelgusida ushbu mavzuni turkiy tillar maqollari bilan qiyoslash, shuningdek, zamonaviy fors nutqida ichki a’zolar metaforalarining qo‘llanilishi yo‘nalishida tadqiq etish istiqbollidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. نشر نی، ۱۳۸۰: تهران. فرهنگ امثال و حکم فارسی. حمیدیان، احمد.
2. انتشارات سخن، ۱۳۸۲: تهران. فرهنگ امثال سخن. انوری، حسن.
3. دانشگاه تهران، ۱۳۷۷: تهران. نامه دهخدا لغت. اکبردهخدا، علی.
4. انتشارات سمت، ۱۳۹۵: تهران. های فارسی المثل شناسی ضرب شناسی و معنی نشانه. صفوی، کورش.
5. انتشارات آستان قدس، ۱۳۹۰: مشهد. های فارسی المثل تحلیل معنایی ضرب. کریمی، محمد.
6. Mieder, W. Proverbs: A Handbook. Westport, CT: Greenwood Press, 2004.
7. Norrick, N. R. Proverbs and Proverbial Expressions. Oxford: Oxford University Press, 1985.
8. Honeck, R. P. A Proverb in Mind: The Cognitive Science of Proverbial Wit and Wisdom. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum, 1997.
9. Kuusi, M. Towards an International Type-System of Proverbs. Helsinki: Suomalainen Tiedekatemia, 1972.
10. Taylor, A. The Proverb. Cambridge: Harvard University Press, 1931.

Fors maqollarida ichki a’zolar ulushi

